

Date: 7th June-2026

MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY
XIZMATLARNI KO'RSATISHDA LANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH
IMKONIYATLARI

S.M.Raximova

Mamun Universiteti NTM,
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy xizmatlar bozori rivojlanishining yangi yo'nalishi sifatida raqamli tibbiy xizmat ko'rsatishning zamonaviy platformalari va uning afzalliklari o'rganildi. Innovatsion iqtisodiyotda tibbiy xizmatlar bozorida xizmatlarni taqdim etishning "elektron sog'liqni saqlash" tizimini keng joriy etish, sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish shart-sharoitlarini yaratish masalalari alohida o'rganilgan. Shu bilan birga raqamlashtirish aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish statistikasini shakllantirishga, ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarning soni va turlarini saqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, raqamli platforma, elektron sog'liqni saqlash, telemeditsina xizmatlari, elektronn retsept.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan sog'liqni saqlash sohasida keyingi besh yillikda amalga oshirilgan kompleks tadbirlar asosida jadal iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yo'liga jadal o'tilmoqda. Tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda sog'liqni saqlash tizimiga ilg'or raqamli texnologiyalarni jalb qilgan holda, raqamlashtirish va raqamli sog'liqni saqlash platformasini yaratish, sohaning barcha darajalaridagi davolash-profilaktika muassasalari uchun ma'lumotlar bazasi kompleksini boshqarishni joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorini elektron platformani ishlab chiqish asosiy chora – tadbirlar sifatida qaralmoqda. Tibbiy xizmatlarni taqdim etishning samarali mexanizmini tashkil etish, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi[3].

So'nggi yillarda mamlakatimizda tibbiy xizmat ko'rsatishning samarali, sifatli va raqobatbardoshlik darajasini oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Aholining sog'ligini mustahkamlash, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatni aholiga yaqinlashtirish, barcha aholi qatlamini maxsus dori-darmon bilan ta'minlash masalalari tibbiy xizmat ko'rsatishning asosiy ijtimoiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Xususan, "Onalar va chaqaloqlar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash" to'g'risidagi 2023yil 8-sentabrdagi PQ-296 sonli qarori, "Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun xarajatlar dasturi" 2021 yil 9-avgustdagi PQ-5217 sonli qarori tibbiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi[2].



Date: 7th June-2026

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilik tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish, tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish ;

-jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etishni ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini va hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etishning "klaster" modelini shakllantirish, tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlarni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish, moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish;

-tibbiy xizmatlarning samaradorligi, sifati va ommabopligini ta'minlash, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish;

-xususiy sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sherikligini va tibbiy turizmni rivojlantirish evaziga sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish va raqobat muhitini yaxshilash;

-tibbiy xizmatlar narxini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish;

-tibbiy xizmatlar bozorida "elektron sog'liqni saqlash" tizimini keng joriy etib, sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish shart-sharoitlarini yaratish.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish tarmoqlarda samarali va tejamkor innovatsion texnologiyalarni qo'llash bu global jarayonga aylanmoqda[4].

Tibbiy xizmatlar bozorida aholi salomatligini saqlash va yaxshilash, sog'liqni saqlash tizimida innovatsion texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, sog'liqni saqlashni rivojlantirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlaridan hisoblanadi. Aholi sog'ligini saqlashga qaratilgan davlat dasturlari ijrosi yuzasidan nazorat olib borish, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish dasturlarini amalga oshirish, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalari tomonidan aholiga o'z vaqtida malakali va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish ustidan nazorat qilishni takomillashtirish maqsadida raqamli platformalar zarur bo'ladi[1].

Fikrimizcha, dunyo mamlakatlarida tibbiy xizmatlarning bozor mexanizmlarini turlicha. Xususan, sog'liqni saqlashni rivojlantirishning bozor kon'yunkturasiga yo'naltirilgan yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish, sog'liqni saqlash sohasiga raqamli texnologiyalarni kiritish, bozor subyektlari o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimlari, to'lov usullari, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish samara beradi deb qaraladi va ularni O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimida samarali qo'llash jiddiy o'zgarishlar, pullik tibbiy xizmatlar bozorini kengaytirish, raqamli sog'liqni saqlash mexanizmlarini tashkil etish bilan bog'liq, chunki raqobat bo'lgan joyda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarning miqdori ham, sifati ham oshadi.



Date: 7th June-2026

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda axborot telekommunikatsiyalar yuqori texnologik davolash amaliyotlarini joriy etilishi bilan belgilanadi. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, ushbu tizimni joriy qilishdan oldin tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi butun respublika bo'ylab bir xil bo'lishini ta'minlash zarur[1]. Bunda poytaxt fuqarosi bilan chekka qishloq aholisiga teng darajada sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilishi lozim. Bunga birdan erishib bo'lmaydi va ma'lum vaqt talab qiladi. Rivojlangan davlatlarda ham soliqni saqlash sohasini raqamlashtirish va tibbiy xizmatlarni ko'rsatishda raqamli platformalarni ishlab chiqish, sohada uni qo'llash uchun 30-40 yil vaqt ketgan. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda yaqin yillar ichida tizim yo'lga qo'yiladigan bo'lsa, albatta, boshida kamchiliklardan holi bo'lmaydi. Lekin muhim jihati shuki, tibbiy xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar asosida taqdim etish nafaqat xizmatlar sifatini yaxshilashga, balki samarali tibbiy xizmatlarni tashkil etish, xizmatlarni taqdim etishning yangi ijtimoiy- iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish yo'lida qo'yilgan eng dadil qadam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Kennet J.Arrow Uncertainty and the welfare economics of medical care.Ecomonics and social facotrs/press.1962. R.B.Saltman,J.Figeras/ published by the World health Organization regional office for Europe in 1997 the title europen Health care reform/№72. E.Pittacco Health insurance basic actuarial models/ [www//springer/.com.series/7879](http://www.springer.com.series/7879). M.Caynor. The industrial organization of health care market.<http://www.wber.org/paper/w19800>.Cambrigde.2014.
2. Nber working paper series the industrial organization of health care markets Martin Gaynor Kate Ho Robert Town Working Paper 19800 <http://www.nber.org/papers/w19800> National bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 January 2014
3. S.M.Raximova Tibbiy xizmatlar bozori rivojlanishining tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusidagi 08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha dissertatsiyasi library.ziyonet.uz\uz\book\125536.2023
- 4.Алексей А. Экономический факультет Московского государственного университета имени М. В. Ломоносова, Российская Федерация,Москва,Ленинские горы, дом 1, строение <https://www.econ.msu.ru>.

